
Toshloq tumanida yetim va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolaga ko'p kvartirali uy-joylardan 2 xonali kvartira ajratildi.

Bugun Toshloq tumanidagi chin yetim va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan 1 nafar yoshga uy-joyga ko'chib kirishi uchun asos bo'ladigan order va xonadon kalitlari topshirildi.

Yangi qurib bitkazilgan ko'p qavatli uyda barcha sharoitlar yaratilgan bo'lib, uyni kalitini tuman hokimi Abduqahhor Djurabayev topshirdi.

Shaxsiy uyimiz bo'lishi haqida ko'p o'ylardim, - deydi xonadon egasi Abdusattor Azimov suhbat davomida. Orzularimizni amalga oshirgan Prezidentimizga rahmat! Otalarcha berilgan bu mehrni faqat Vatanga xizmat bilan qaytaramiz.

2023-12-18 09:50:53